



INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ORQALI BOLALAR YOZUVCHILARI VA SHOIRLARI IJODINI O'RGATISH USULLARI

Tuychiyeva Z.A.

O'zbekiston, Qo'qon DPI tayanch doktoranti (PhD)

Tayanch so'zlar: innovatsiya, texnologiya, grafika, bilim, ko'nikma, malaka, o'qish savodxonlik, matn, adib, yozuvchi, shoir, o'qituvchi, savodxonlik, dars.

Ключевые слова: инновация, технологии, графика, знания, умения, навыки, чтение грамотность, текст, писатель, писатель, поэт, учитель, грамотность, урок.

Key words: innovation, technology, graphics, knowledge, skills, competence, literacy, text, literary, writer, poet, teacher, literacy, lesson.

Резюме:

Ushbu maqolada o'qish savodxonligi darsligida berilgan asarlarni mualliflari hayoti va ijodini o'rganishda innovatsion yondashish. Adib va bolalar yozuvchilarining hayoti va ijodini o'rganish orqali bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish.

Резюме:

Новаторский подход к изучению жизни и творчества авторов произведений, приведенный в данной статье учебник по чтению грамоты. Привить детям любовь к книге через изучение жизни и творчества писателей и детских писателей.

Summary:

An innovative approach to the study of the life and creativity of the authors of the works given in this article in the textbook reading literacy. Instilling love in children for the book by exploring the life and work of the writer and children's writers.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon ulkan islohotlar va taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Ushbu taraqqiyot va bunyodkorlik yo'lida barkamol avlodning o'rni juda katta. Mamlakatimiz rivoji taraqqiyotining asosi ta'lim tizimining sifatli va mukammalligi bilan ham bog'liq. Shu bois "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iborat. Ta'lim muassasalarida ta'lim

jarayoni sifatini ko'rsatib beruvchi ilg'or, har tomonlama ilmiy – metodik jihatdan asoslab berilgan uslublarning – yangi pedagogik texnologiyalarning maqsadi - Respublikamizning ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan yosh istiqbolli pedagog kadrlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rgatish, pedagogika va psixologiya fanlariga oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan bilimlarini o'quv-tarbiya jarayonida qo'llay olishga o'rgatish, shuningdek, ularga pedagogik mahorat sirlarini ochib berishdan iborat. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni bolalar ta'limiy jarayonida qo'llashda avvalo yuqoridagi bola kompetensiyalarini shakllantirishning qay birida maqbulligini aniqlash hamda ustuvor jihatlarni hisobga olish kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodlari. Bolalar adabiyoti deganda biz yozuvchilar tomonidan ularga mo'ljallab yozilgan maxsus asarlarni tushunamiz. Ijtimoiy ong shakllari, ta'limiy, mafkuraviy ishning barcha sohalari kabi, bolalar adabiyoti ham voqelik bilan hayotdagi turli ijtimoiyhodisalarhamda insoniyat turmushi bilan bog'liq bo'lib, ularni o'ziga xos vositalarda badiiy aks ettiradi. Bolalar adabiyotida ifodalangan voqeliklar hayotiy, haqqoniy tasvirlanish hamda ularning ruhiyatiga, ongiga mos, tushunarli va albatta, qiziqarli bo'lishi kerak.

O'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ulardan unumli natija ola bilish pedagogdan katta salohiyat hamda mahorat talab etadi [1]. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq etibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi masuliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga



undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrofmuhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va etiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakkam ehtiros bo'ladi. Darsning oldindan loyihasi, yani texnologik xaritasi tuziladi.

Natijalar va muhokama. Texnologik xarita tuzish uchun o'qituvchi darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar, ularda o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish yo'llari, teskari aloqani amalga oshirish, ularga ajratilgan vaqtni aniq belgilash lozim. Texnologik xaritada albatta tashkiliy qism, yangi mavzuning motivatsiyasi, o'quvchilar bilimni tekshirish, yangi mavzuni o'rganish va uni mustahkamlash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash kabi bosqichlari bo'ladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchining dars davomida bajaradigan ishlari bosqichma-bosqich qayd etiladi. Dars texnologik xaritasining mukammal tuzilishi, maqsad va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish va bosqichlar o'rtasidagi uzviylikni taminlash, vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi. Pedagogik texnologiya - ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi[2]. Texnologiya so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu so'z yunonchadan olingan bo'lib, "tehnos"-mahorat, san'at "logos" - ta'limot, fan ma'nolarini anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, texnologiya so'zi boshqa terminlarga qo'shilib, ana shu sohani rivojlantirish, mahoratini oshirish vazifalarini bajaradi. Umumiy qilib aytganda, texnologiya sifat jihatdan yangi masalalarni yechish uchun ta'lim evolutsiyasi bosqichini tayyorlagan obyektiv jarayondir. Yangi texnologiyalar katta ta'lim imkoniyatlarini ochdi. Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki,

odat bo'lgan tushuntirishda "o'rgatish" jarayonlari o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladi. Vujudga kelgan yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va ko'rgazma vositalari o'ziga xos tarzda yangi metodikalar bilan ta'lim jarayoniga ko'pgina yangiliklar kiritib, uning ajratilmas qismi bo'lib qolmoqda. Biroq, pedagogik texnologik jarayonning o'ziga xosligi, uning an'anaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon ta'limi muammolari real yechish usullari hali to'la o'rganilmagan. Bu haqda chet ellik va o'zbek avtorlari ko'p yozmoqdalar. Lekin barchalari pedagogik texnologiyalar kelajakda ustuvor o'ringa ega bo'lishiga ishonadilar. Hozirda ta'lim texnologiyasi yordamchi vosita bo'lib qolmay balki, o'quv jarayonining rivojlanishida katta rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o'zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Texnologiyani bunday tavsif qilish ta'lim jarayonidagi barcha tuzuvchilar orasidagi uzviy bog'lanishning muhimligini, pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorligini ko'rsatadi. O'quvchi passiv ta'lim obyektidan faol shaxs ta'lim va tarbiya subyektiga aylanadi va aktiv subyekt sifatida o'qituvchi bilan bu jarayonda qatnashadi, mustaqil bilim olishga intiladi. Innovatsion usullarda dars o'tish jarayonini, ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim davridan boshlab tashkillashtirish ta'lim tizimida yuqori samara beradi. Bu degani, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Ana shu poydevorni mustahkam tarzda bunyod etish kelgusi davrlardagi ta'lim jarayonlarining o'tilishida ham qulaylik yaratgan bo'ladi [3]. O'z-o'zidan kelib chiqadiki, boshlang'ich ta'limdan boshlab tashkil etilgan pedagogik texnologiyalar ta'limning keyingi davrlarida tashkil etilishida birinchi bosqich vazifasini o'taydi. Innovatsiya – (inglizcha "Innovation" – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish) [4]. Innovatsiya – yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o'zlashtirishni va targ'ibotini o'rganadigan fan. Innovatsion jarayon – yangilikning kiritilishi va shart – sharoitlari, tizimni yangi ko'rsatgichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishdir. Innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorlarining mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir (V.I.Slobotchikov).



Xulosa. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o‘quv jarayonini sifatli va samarali tashkil etishdan iborat. Bu faoliyat shaxsan o‘qituvchini o‘zigagina taaluqli bo‘lib qolmay, bir qator shaxs, guruh, omma, institutsion masshtabda ham bo‘lishi mumkin. Yangilikni kiritish: - Innovatsiyadan foydalanish mexanizmi (yangilikni va uning jarayonini amaliyotga kiritish);- Maqsadli o‘zgartirish bo‘lib, ma’lum sotsial – ijtimoiy birlik (muassasa, jamoa, guruh)ga yangilik kiritish, uni yangi stabil rivojiga olib keladi (A.I.Prigojin).

Adabiyotlar:

1. Havasxon Shokirova Ta’limda innovatsion texnologiyalarning o‘rni.T.: Yangi asr avlodi, 2013. – B.20.
2. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05), 6694-6701.
3. Kholikova, N. (2020). Poetic Features of Uzbek Poetry of the National Awakening Period. *Theoretical & Applied Science*, (4), 615-623.
4. J.G` . Yo`ldoshov "Interfaol ta'lim sifat kafolati" (O`.M.O.N) 2008 – B.22. 68